

## URUSH HODISASINING IJTIMOIY OQIBATLARI TAHLILI

**Maxmudov Bekzod Xojixonovich**

O‘zbekiston Milliy universiteti erkin tadqiqotchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yaqin Sharq mamlakatlarida tez-tez yuzaga kelayotgan urushlar, ularning mohiyati, kelib chiqish sabablari hamda ijtimoiy oqibatlari muhokama etiladi.

**Kalit so‘zlar:** mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlik, diniy-etnik munosabatlar va ziddiyatlar.

### KIRISH

Bugungi XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimida yangi dunyo tartibotining shakllanishi jarayoni kechmoqda va bu, o‘z navbatida, mintaqalar darajasidagi hamda mintaqalar ichidagi esidan saqlanib kelayotgan, ziddiyat o‘chog‘i hisoblangan turli tarixiy, etnik, siyosiy, diniy, hududiy va boshqa asoslarga ega bo‘lgan mojarolarning keskinlashuvi sharoitida yuz bermoqda.

Hozirda jahonning turli hududlarida lokal ahamiyat kasb etgan mintaqaviy mojarolarning soni va turi hamda uning ko‘lami tobora kengayib, ushbu mojarolarning kelib chiqish sabablari orasida milliy- etnik omil ta’sirining ahamiyati ortib borayotganligi, dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrning 90-yillari so‘ngida dunyoning bir qator hududlari, xususan, Sharqiy Evropa, Yaqin Sharq va Afrika mintaqasida yuz bergen keskin etnik mojarolar buning yaqqol misolidir<sup>1</sup>. Bu mojarolar etnik-diniy, etnik- siyosiy, ba’zan esa etno-hududiy ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasidagi etnosiyosiy va etnodiniy vaziyat bugungi real voqelik sharoitida har qachongidan-da, keskin tus olib bormoqda. Bu mintaqadagi etnik vaziyatni chuqur tahlil qilish va o‘rganish, uni tartibga solishning hamnazariy, ham amaliy jihatlarini kompleks tadqiq etish, bugungi kun fanining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov: “Bugungi kunda dunyoning turli mintaqqa va hududlarida avj olayotgan qarama-

<sup>1</sup> Turk-kurdlar muammosiga oid. R.D.Macburin The political role of Minorities in the Middle East. – New York: Praeger, 1979; Janubiy Turkiya va shimoliy Iroqdagagi hodisalar to‘g‘risida. Time, 24 April 1995.

qarshilik, jumladan, Yaqin Sharqda, Iroq va Suriya mamlakatlarida bo‘layotgan qonli to‘qnashuvlar, musulmon dunyosidagi turli mazhab va oqimlar o‘rtasida kuchayib borayotgan o‘zaro nizo va ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurbon bo‘layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo‘ymaydi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Aytish lozimki, bugungi kunga kelib Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi o‘z yechimini topmagan eng murakkab masalalardan biri, bu – ushbu davlatlar hududidagi mavjud etnik ozchiliklar huquqlarini to‘liq ta’minlay oladigan kuchli davlatning shakllantirilmaganligidir. Ushbu davlatlar turli murakkab etnik va diniy guruhlarga ega ko‘p millatli davlat sifatida ularning jamiyatdagi siyosiy muvozanatini ta’minlash masalalari yuzasidan jiddiy muammolar qurshovida qolib kelmoqda. Turli etnik va diniy-etnik guruhlarning huquq va manfaatlarini kafolatlash yo‘lida mintaqaning deyarli har qaysi davlati davlat qurilishining turlicha loyiha va shakllarini qo‘llab kelmoqda<sup>1</sup>.

Bugungi kunda mintaqada arablar mutloq ko‘pchilikni tashkil etgan holda keyingi o‘rirlarni turk, eron, kurd va yahudiy millatlari egallaydi. Qolgan ossur, finikin, grek, arman, mezendaran, talish, belujiy xalqlari (qadimdan mavjud) hamda laz, chechen, serb, xorvat, bosniy xalqlari (o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan) mintaqada ijtimoiy-siyosiy hayotida katta kuchga ega emas. Mintaqadagi etnosiyosiy munosabatlar asosan arab, yahudiy, turk, kurd va forsiylar o‘rtasida mavjud bo‘lib, mintaqadagi vaziyat ular o‘rtasidagi goh salbiy, goh ijobiy munosabatlarga qarab o‘zgarib turadi. Shuningdek, mintaqadagi etnosiyosiy munosabatlarda diniy omilning o‘rni va ta’sirinialohida e’tirof etish kerak. Aynan, Yaqin Sharqda turli diniy konfesiylar, oqim va mazhablar o‘rtasidagi munosabatlar etnik munosabatlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu mintaqada davlatlarida etnik xususiyat aksariyat hollarda konfessional xususiyatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mintaqa davlatlarining aksariyatida etnik hamda konfessional bo‘linishlar mavjudligi sababli ular o‘rtasidagi ziddiyatlarning ochiq ko‘rinishi ko‘p bora qayd etilgan. Ushbu ziddiyatlar so‘nggi o‘n yillikda Sudan, Iroq, Livan, Liviya hamda Yaman kabi davatlarda, hatto qurolli mojarolar ko‘rinishida avj oldi. Ushbu davlatlar mahalliy aholisi bir millatga mansub bo‘lishiga qaramay, ular o‘rtasida konfessional qarama- qarshiliklar juda keskin tus olgan. Shuningdek, mintaqadagi musulmon kurdlar (Iroq va Suriyadagi), berberlar (Jazoir va Marokashdagi) hamda qora tanli musulmonlar/Black Muslims (Mavritaniya va Sudandagi) “etnik ozchilik” sifatida

<sup>1</sup> Alhamad Laila. Ellen Lust-Okar va Saloua Zerxunidagi rasmiy va norasmiy nishon joylari. Tahrir, Yaqin Sharqdagi siyosiy ishtirok. Boulder Col.: Lynne Rienner, 2008. – R. 33-47.

emas, balki, umumjamoa “umma”ga tegishli deb hisoblanadi<sup>1</sup>. Bu kabi davlatlarda arab bo‘lmagan, biroq islom diniga mansub barcha musulmon jamoalari (“umma”) birdek qo‘llab-quvvatlanadi va ularning “fuqarolik” maqomi ham din asosida belgilanadi. Musulmon bo‘lmagan arab dunyosi vakillari esa musulmon arablari oldida o‘zlarini xavf ostida, kansitilgan sezishlariga qaramay, diniy jihatdan doimo tenglikka intilib kelishadi. Bu borada Misrdagi qiptiylar, Livandagi maroniylarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Shu bilan birga, yagona arab millatini tashkil etuvchi hisoblangan davlatlar – Misrda panarabizm g‘oyasi, Liviyada urug‘-aymoqchilik illatlari, Suriya, Livan va Yaman davlatlarida esa konfessionalizm o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, mintaqada davlatlarida konfessional va etnik munosabatlar juda nozik tabiatga ega bo‘lib, bu borada tarixda ko‘plab ziddiyatli muammolar yuzaga kelganini kuzatish mumkin.

Ma’lumki, mintaqadagi millatlararo ziddiyatlar tasnifiga arab– Isroil, arab–fors, turk–kurd kabi ziddiyatlarni misol sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin. 1948–1990 yilgacha davom etgan, keyinchalik, aniqrog‘i 1990 yildan so‘ng Arab–isroil urushi. Bu urush 1990 yildan hozirgacha Isroil–Falastin urushi deb nom oldi. Ushbu urush natijasida hozirgacha 200 mingdan ortiq aholi qurbon bo‘lgan bo‘lsa, 3 mln. ga yaqin aholi qochoqlarga aylandi. Arab–fors urushiga Iraq–Eron mojarosini (1980– 1988 yillar) misol sifatida keltirib o‘tish kerak. Ushbu mojaroda 600 mingga yaqin aholi qurbon bo‘lib, 1 mln. dan ortiq aholi qochoq sifatidaboshqa joylarga ko‘chib o‘tdi. Janubiy Turkiyadagi hukumat qo‘sishlari hamda “Kurdlar ishchi partiyasi” vakillari bo‘lgan kurd qo‘zg‘olonchilari o‘rtasidagi 1994 yilning oxirlaridan boshlanib, 1995 yilgacha davom etgan qurolli mojaro eng fojiali holatlardan biri hisoblanadi. Bunda “Kurdlar ishchi partiyasi”ga qarshi Turkiya armiyasi va harbiy havo qo‘sishlarining 50.000 ga yaqin askari “qidiruv va yo‘qotish” kampaniyasini amalga oshirib, qo‘sni Iraq hududida ham “izidan quvish” strategiyasini olib bordi. Hozirgi kungacha davom etib kelayotgan mazkur holat, Yaqin Sharqdagi etnik ziddiyatlarning jiddiy ko‘rinishi bo‘lib, bu mintaqaning keyingi 20–30 yillik davri uchun ham dolzarb bo‘lib qolishi mumkin. Chunki, turk–kurd muammosi iroz–kurd, eron–kurd va nisbatan kamroq ko‘rinishda suriya–kurd muammolari bilan bevosita bog‘liqlikda keskin tus olishi ehtimoli katta.

So‘nggi paytlarda bir din vakillarining ikki mazhabi o‘rtasidagi ziddiyatlar tobora kuchayib bormoqda. Masalan, Suriyada shia kamchiligi hokimiyatni nazorat qilgan holda sunniy ko‘pchilik ustidan, Yamanda esa, hokimiyatga egalik qiluvchi sunniy ozchilik–ko‘pchilikni tashkil etuvchi shia-xusiyatlari ustidan qattiq nazorat o‘matishi

<sup>1</sup> Swain A., Ojendal J., Schulz M. Yaqin Sharqda xavfsizlik - tobora ko‘p o‘lchovli va qiyin. Shvetsiya Qurolli Kuchlari shtab-kvartirasida Strategik istiqbol loyihasi tomonidan topshirilgan tadqiqot. – Stokholm: avgust, 2009 yil. – R. 26–27.

oqibatida, ular o‘rtasida qonli to‘qnashuvlar davom etib kelmoqda. Ayniqsa, 2011 yilda “Arab bahori” nomini olgan ziddiyatlarda Shimoliy Afrikadagi Misr, Jazoir, Liviya arab davlatlari bilan birgalikda Suriya va Yamanda ham hukumatga qarshi fuqarolarning chiqishlari kuchayib ketdi<sup>1</sup>. Bu voqealar ushbu davlatlarda “gazak” olib yotgan etnik va konfessional muammolarning yanadaqo‘zg‘alishiga sabab bo‘ldi. Natijada, Misrda H. Muborak, Liviyyada M. Kaddafi, Yamanda A. Solih hokimiyatlariga yakun yasaldi. Suriyada alaviylar (shia) va sunniylar o‘rtasidagi mojaro avjiga chiqib, mintaqadagi vaziyat yanada keskinlashdi.

Rossiyalik akademik Y. Primakov “Sovuq urush” davrida strategik ahamiyat kasb etgan Yaqin Sharq mintaqasi ikki muhim omildan kelib chiqqan holda: birinchidan, Sobiq Ittifoqning AQSh bilan konfrantatsiyadagi muhim mintaqasi (masalan, Bag‘dod pakti), ikkinchidan esa, AQShga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik kurashi hududi” sifatida belgilangan deb ta’kidlaydi. Xususan, bugungi kunda Suriya va Iroqda bo‘layotgan etnik qarama-qarshiliklarning keskin tus olishida hanuzgacha ushbu omillar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, Suriya Arab davlatida oxirgi besh yillikda etnik va konfessional qarama-qarshiliklar juda keskinlashib, minglab begunoh insonlarning halok bo‘lishiga olib keldi. Agar, AQSh, YeI davlatlari va Saudiya Arabistoni Suriyada hukumatga qarshi sunniylarning xatti-harakatini har tomonlama qo‘llab- quvvatlayotgan bo‘lsa, Rossiya, Xitoy va Eron Suriyaning amaldagi hukumat rahbari B. Asadni (shia alaviy) har tomonlama himoya qilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, mintaqadagi etnik munosabatlarning yanada keskin tus olishida mintaqadagi davlatlarining bir-biriga bo‘lgan adovati, tanqid va tahdidlari beqarorlik omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Haqiqatan ham, mintaqadagi mavjud etnik-diniy mojarolar yechimi mintaqadagi davlatlarining o‘zaro hamkorligini talab etuvchi o‘ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aks holda, bu jarayonlarda tashqi davlatlarning aralashuviga olib kelaveradi. Zero, tashqi davlatlarning mojarolarga aralashuvi kuchayib, muammo yechimi yanada chigallashmoqda.

Shunday qilib, hozirgi davrda Yaqin Sharq davlatlaridagi etnik va konfessional mojarolar mintaqaviy jiddiy muammoga aylangan. Ularning yuzaga kelish sabablari va omillari yuzasidan tadqiqotchilar mintaqadagi davlatlarda mustaqillikning ilk davrlarida hokimiyat tepasiga kelgan harbiy rejimlar tomonidan etnik guruhlar manfaatlarini ta’minlashga oid bergen va’dalarining hayotda o‘z aksini topmaganligidadir, deb e’tirof etadilar.

<sup>1</sup> Primakov E. M. Yaqin Sharq mojarosining anatomiyasi. - M., 1978. - S. 164.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tahlillar Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligini ta'minlash, birinchi navbatda, etnosiyoziy va etnokonfessional munosabatlarni qaydarajada tartibga solishga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Ushbu mintaqadagi etnik muammolarning boshqa mintaqadagi etnik muammolardan farqi esa, bu etnik o'ziga xoslikning diniy va konfessiyalararo munosabatlardan kelib chiqqan holda belgilanishi hamda mavjud qarama-qarshiliklarning shunga borib taqalishidadir. Aynan, mintaqada turli-tuman etnik va diniy konfessiyalarning mavjudligi hamda ular o'rtasidagi bir qator muammo va ziddiyatlar, jumladan, Isroil davlati bilan falastinliklar o'rtasidagi ziddiyatlarning o'sib borishi, Suriya va Isroil o'rtasidagi Jo'lom tepaligi muammosi (bu nafaqat hududiy muammo, balki etnik muammo ham hisoblanadi), kurdlar muammosi va Arab davlatlaridagi ichki etnik va diniy konfessiyalararo ixtiloflar mintaqaga xavfsizligini ta'minlashga katta salbiy ta'sir ko'rsatgan holda, uni yanada murakkablashtirmoqda. Shu bois ham, bugungi kunda mintaqadagi etnik va konfessional qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, mintaqadagi har bir davlat tomonidan etnik va konfessional ozchilikka nisbatan adolatli boshqaruvni joriy qilish, etnik va konfessional tenglik tizimini yaratish, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, fuqarolik institutlarini rivojlantirish masalalari o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Turk–kurdlar muammosiga oid. R.D.Macburin The political role of Minorities in the Middle East. – New York: Praeger, 1979; Janubiy Turkiya va shimoliy Iroqdagi hodisalar to‘g‘risida. Time, 24 April 1995.
2. Alhamad Laila. Ellen Lust-Okar va Saloua Zerxunidagi rasmiy va norasmiy nishon joylari. Tahrir, Yaqin Sharqdagi siyosiy ishtirok. Boulder Col.: Lynne Rienner, 2008. – R. 33-47.
3. Enloe C. Etnik askarlar. Bo‘lingan jamiyatlarda davlat xavfsizligi. - Afina: Jorjiya universiteti nashriyoti, 1980.
4. Swain A., Ojendal J., Schulz M. Yaqin Sharqda xavfsizlik - tobora ko‘p o‘lchovli va qiyin. Shvetsiya Qurolli Kuchlari shtab-kvartirasida Strategik istiqbol loyihasi tomonidan topshirilgan tadqiqot. – Stokholm: avgust, 2009 yil. – R. 26–27.
5. 1956 yil Isroil–Buyuk Britaniya–Fransiya birlashgan qo‘sishlari Misrga yurish qiladi va Suvaysh kanalini bosib oladi. Sobiq Ittifoqning yordami bilan Misr ushbu urushda g‘alaba qozonadi.
6. Primakov E. M. Yaqin Sharq mojarosining anatomiysi. - M., 1978. - S. 164.